

THE STYLISTIC FEATURES OF EXPRESSIONS USED IN IQBOL MIRZO'S POEMS

Turg'unova Guldona Sadridin kizi

Annotation: In this article, the stylistic features of phrases, including synonymy, antonymy and polysemy, are analyzed. Moreover, their meanings in literary texts and non-literary usage are compared and presented on the basis of tables.

Keywords: synonymy, antonymy, synonymic and antonymic relations, polysemy, somatic expressions, semantic commonality

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA QO'LLANILGAN IBORALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada iboralarning stilistik xususiyatlari, jumladan sinonimiya, antonimiya, ko'pma'nolilik hodisalari tahlil qilingan. Shuningdek, ularning badiiy matndagi hamda matndan tashqari ma'nolari taqqoslanib, jadvallar asosida yoritib berilgan..

Kalit so'zlar: sinonimiya, antonimiya, sinonimik va antonimik munosabat, ko'pma'nolilik, somatik iboralar, semantik umumiylik.

Iboralarning uslubiy imkoniyatlari nihoyatda katta. Xuddi so'zlar kabi iboralar ham uslubiy qo'llanishi jihatdan neytral yoki uslublardan biriga tegishli bo'lishi mumkin. Iboralardan so'zlashuv va badiiy uslubda ko'proq foydalaniladi. Badiiy uslubda iboralarning qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, ular badiiy asar tili ta'sirchanligini, shuningdek, badiiy asar qahramoni nutqining ifodaliligi oshirishga yordam beradi.

Iboralar uslubiyati o'rganilganda dastlab ular o'rtasidagi sinonimiya, omonimiya va antonimiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Iboralarning sinonimiya hodisasiga boyligi ulardan foydalanishda katta stilistik imkoniyatlar yaratadi.¹

Sinonim, antonim iboralar va ko'pma'nolilik

Sinonimiya til birliklari orasidagi kichik sistema bo'lib, bu iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farqdir.

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori har xil bo'ldi. Ko'pchilik uyalar ikki sinonimli, uch, to'rt iborani birlashtiruvchi uyalar ham bor. Buni biz quyida Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan iboralar misolida ko'rib chiqamiz.

1. Ibora bilan ibora sinonimlikni yuzaga keltiradi.

Ibora	Ibora	Ma'nosi
Mum tishladi	Tilini tishladi	Gapirmaslik
Yuz burmoq	Yuz o'girmoq	Voz kechmoq
Dili qonga to'ldi	Jigar-bag'ri qon bo'ldi	G'am-alamli

¹ Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-Toshkent: Sharq, 2002.

Ko'nglini bilmoq	Yuragini bilmoq	Yashirin tuyg'ulardan xabardor bo'lmoq
Ko'ngli to'q	Ko'zi to'q	Nafsi to'q
Shayton yo'ldan urdi	Shayton chalg'itdi	Yomon yo'lga kirmoq
Yaxshi ko'rmoq	Xush ko'rmoq	Yoqtirmoq
Xudo urdi	Haq urdi	Og'ir musibatga duchor bo'lmoq
Bag'ri qon	Yuragi qon	G'am-alamli
Qo'msamoq	Yuragi oqmoq	Juda ham sog'inmoq
Qalbga nish urmoq	Zahrini sochmoq	Dilini og'ritmoq
Toshtag'ir	Toshdil	Bemehr
Ko'nglini og'ritmoq	Bag'rini tilmoq	Ranjitmoq
Ko'z yoshiga lim to'lmoq	Ko'z yoshi sim bo'ldi	Yig'lab ado bo'ldi
Ko'ngli ezildi	Bag'ri ezildi	Ko'ngli og'ridi
Kulini sovurmoq	Kulini ko'kka sochmoq	Yo'q qilmoq
Yuragi potirlamoq	Yuragi o'ynamoq	Bezovtalanmoq
Qismatiga ko'nmoq	Taqdirga tan bermoq	Rozi bo'lmoq
Ko'zi to'rt bo'lmoq	Dili qo'msamoq	Sog'inmoq
Tilini chaynadi	Tili aylanmay qoldi	Gapirolmay qolmoq
Qon yig'ladi	Ko'z yoshi sim bo'ldi	Qattiq azoblanmoq
Mensimadi	Labini burdi	Nazar-pisand etmadi
Dili kuyinmoq	Ko'ngil so'ramoq	Achinmoq
Ko'ngli vayron	Ko'ngli abgor	Qattiq ranjimoq

2.Ibora bilan so'z sinonimik munosabatga kirishadi. Bu leksik-frazeologik sinonimlikdir. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan iboralarning leksemalar bilan sinonimligini quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz.

Ibora	Leksema(so'z)
Tiz cho'kmoq	Mag'lub bo'lmoq
Yurak-bag'ri yara	Alamli
Chap bermoq	Uddaburon
Ko'zi giryon	Intizor
Ko'nglini qitiqlamoq	Shubhalanmoq
Dunyoga jar solmoq	Bo'rttirib xabar tarqatmoq
Sir tutmoq	Yashirmoq
Dunyodan uzilgan	Chetda qolib ketmoq
Yuragi qurtlamoq	Nasfiga qul
Ko'ngli yarim	Yetim
Bag'rini ochmoq	Qabul qilmoq

Bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o'zaro obrazlilik darajasi, ma'nolarning kuchayib borishi(gradatsiya) bilan bir-biridan farqlanadi. Buni quyida Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan iboralar misolida ko'rib chiqamiz:

Yuragi ingradi – Yuragi titradi – Yuragi to'kildi;
Xush ko'rmoq – Yaxshi ko'rmoq – Ko'ngil bermoq;
Ko'nglini og'ritmoq – Zahrini sochmoq – Bag'rini tilmoq – Qalbiga nish urmoq;
Yuragi qon – Bag'ri qon – Dili qonga to'lmoq – Jigar bag'ri qon;
Ko'ngli ezildi – Bag'ri ezildi – Yuragi to'kildi;
Dili qo'msamoq – Yuragi oqmoq – Ko'zi to'rt bo'lmoq;
Ko'ngli to'lmadi – Dili qo'zg'aldi – Yuragini qon qildi;
Ko'ngli muz– Ko'ngli tosh – Toshbag'ir;
Qoni gupirmoq – Qoni qaynamoq – Qoni qaynab jo'sh urmoq;
Ustidan kulmoq – Ustidan kulib yurmoq – Ustidan kulib o'ynamoq;
Dili orziqdi – Ko'zi xumor bo'ldi – Ko'zi to'rt bo'ldi;
Ko'ngli buzildi – Ko'ngli sovidi – Ko'nglini uzdi.

Antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi kabi qarama-qarshi ma'no uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarining lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, ko'p ma'nolik hodisasida bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.²

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar antonim iboralar (frazologik antonim) hisoblanadi. Masalan, *oq ko'ngil – ichi qora; yaxshi ko'rmoq-yomon ko'rmoq*. Bir so'z bir ibora bilan antonim bo'lsa, bu leksik-frazologik antonim deyiladi.

Yomon ko'rmoq-sevmoq;
Yaxshi ko'rmoq-nafratlanmoq;
Ko'ngli to'q-notinch.;
Taqdirga tan bermoq-kurashmoq.

Sinonimiyada bo'lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir ma'nosiga antonim bor bo'lishi, boshqa bir ma'nosiga esa yo'q bo'lishi mumkin. Masalan, *savol bermoq* monosemantik iborasiga besh ma'noli *javob bermoq* iborasining birinchi ma'nosi antonym (qolgan to'rt ma'nosiga frazeologik antonim yo'q).³

Ibora bilan ibora antonimlikni yuzaga keltiradi. Shoir she'rlarida bir-biriga antonim bo'la oladigan iboralar ham qatnashganini ko'ramiz.

Ibora	Ibora
Tomirida qon muzlamoq	Qoni qaynamoq
Ko'ngli to'lmoq	Ko'ngli to'lmaslik
Yuragi oq	Ichi qora
Yuragi to'lmoq	Yuragi o'ynamoq
Yaxshi ko'rmoq	Yomon ko'rmoq
Oqko'ngil	Ko'ngli tosh
Qoni muzlamoq	Qoni qaynamoq

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik.-Toshkent:Universitet, 2006.

³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi O'zbek va rus tillarida frazeologik antonimlar.-Toshkent:Universitet, 2000, -B.32.

Tin olmoq	Yuragi potirlamoq
Jonni yoqmoq	Jonga yoqmoq

Ko'pma'nolilik hodisasi so'zlarda juda taraqqiy etgan bo'lib, bu hodisa iboralarda ham uchraydi. So'zlarning juda ko'p qismi ko'p ma'nolidir, iboralarda esa unday emas. Iboralarning asosiy qismi bir ma'nolidir. Iboralar ko'p ma'noligida ham xuddi so'zlarning ko'p ma'noligida bo'lgani kabi bosh va yasama ma'no farq qiladi. So'zlarning ko'p ma'noligida bosh ma'no to'g'ri ma'noga, yasama ma'no esa ko'chma ma'noga teng. Iboralarning ko'p ma'noligi bundan farq qilib, bosh ma'no ham ko'chma ma'noda bo'ladi. Chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.⁴

Iqbol Mirzo she'rlarida ham shunday ko'pma'noli iboralarning qo'llanganini kuzatamiz.

Jonimga tig' urib qiynaydi sog'inch,
Keyin tig' sug'urib qiynaydi sog'inch.
Xayrlashmay turib qiynaydi sog'inch,
Yuragim qon bo'ldi seni sog'inib.

(“Seni sog'inib” she'ridan)

Yuragi qon bo'ldi: 1. *kimning* - diltang bo'lmoq, siqilmoq. 2. *kimning* - ruhan azoblanmoq.

Ushbu she'riy parchada *Yuragi qon bo'ldi* iborasi “Diltang bo'lmoq, siqilmoq” ma'nosida qo'llanilgan. Ya'ni oshiq yorini sog'inganidan yuragi siqilib, diltang bo'lib ketgan. Sog'inch uning tanini va ruhini o'rtab, qiynab yuborgan. Sog'inch azoblarini ifodalash uchun har bir misrada iboralar qo'llanilgan va ifodalilik kuchayib, gradatsiyani yuzaga keltirgan.

Yuzlarimga suv urdi samo,
Seskandimu o'zimga keldim.
Kimligimni sezdim avvalo,
Keyin hech kimmasligim bildim.

(“Alvido” she'ridan)

O'ziga kelmoq: 1. *kim* - behushlikdan qaytmoq. Varianti: o'zi(ga) keltirmoq *kim kimni*.

2. Odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq.

Ushbu she'riy parchada *O'ziga kelmoq* iborasining 1-ma'nosi qo'llanilgan. Yani shoir samoning yuziga suv urishi oqibatida beshushlikdan qaytgani va kim ekanligini anglaganini go'zal o'xshatishlar bilan ochib bergan.

Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan iboralarni tahlil etish jarayonida shunisi aniq bo'ldiki shoir she'rlarida *dil, ko'ngil, yurak, bag'ir hamda qon* so'zlari ko'p qo'llanilgan. Bular somatik iboralardir. *Ko'ngil, yurak, dil, bag'ir* so'zlari o'zaro sinonimdir. Ushbu *dil, yurak, bag'ir, yurak, qon* komponentli iboralar insonning ichki tuyg'ulari, kechinmalari va his-hayajoni, ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlillar davomida yana shunisi aniq bo'ldiki shoir she'rlarida “*Yurak-bag'ri...*”, “*Jigar-bag'ri...*” ko'rinishidagi iboralar ko'p qo'llanilgan. Bunday ko'rinishli iboralar shaxsning g'oyat darajada ruhiy azoblanishi, g'am-alamlari, iztiroblarini kuchaytirib ko'rsatib bergan. Masalan, *yurak-bag'ri yara, jigar-bag'ri qon, yurak-bag'ri qon, yurak-bag'rini qon qilmoq, yurak-bag'rini tirnamoq* kabilar.

⁴ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi.-O'qituvchi, 1983.

Bir paradigma doirasida birlashgan iboralar ma'nosida semantik umumiylik bo'lishiga qaramasdan, ular funksional-stilistik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Shu sababli, ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash hamma vaqt ham mumkin bo'lmaydi. Chunki ular ifoda ottenkasiga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.⁵

LIST OF REFERENCES USED:

1. Rafiyev A., Gulomova N. Native language and literature. Textbook for vocational colleges.- Tashkent: Sharq, 2002.
2. Rahmatullayev Sh. Phraseological antonyms in the current Uzbek and Russian languages.- Tashkent: University, 2000, -B.32.
3. Rahmatullayev Sh. Current literary Uzbek language. Textbook.-Tashkent:Universitet, 2006.
- 4.Suvonova N. Interpretation of phraseology as a system-level unit.-Tashkent, 2008.
- 5.Shomaqsudov A., Rasulov I., Kongurov R., Rustamov H. Stylistics of the Uzbek language.- Teacher, 1983.
- 6.UzME. First volume.-Tashkent, 2000.

⁵ Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili.:Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss.avtoref.-Samarqand, 2018.